




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



IC²I JOURNALS
MASTER LIST

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTER

doi

zenodo

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBID

Google Scholar

open access.nl



**INNOVATION TALABALAR
AXBOROTNOMASI**

**3-JILD, 3-SON
2026**

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:



Ilmij jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

3-JILD, 3-SON | MART - 2026 |

+99833 5668868 | www.innoworld.net | @Anvarbek_PhD

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA HUQUQBUZARLIKLARNING ASOSIY SABABLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI

Akrambayev Xasan Mamadjanovich

IIV Malaka oshirish instituti Xizmat-jangovar va jismoniy tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d., podpolkovnik

Annotatsiya: Maqola ichki ishlar organlarida huquqbuzarliklarning asosiy sabablari, qilingan tahlil va oldini olish choralari. huquqbuzarliklar turlari bo'yicha o'rganilgan. huquqbuzarlikni sodir etishi mumkin bo'lgan yosh xodimlarning xatti-harakatlarining tahlili. huquqbuzarliklarning oldini olish uchun kompleks va tizimli choralar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari, huquqbuzarliklar, turlari, asosiy sabablari, yosh xodimlar, huquqiy bilim, omillar, tajriba, psixologik bosim, nazorat, tahlil.

Аннотация: В статье представлены основные причины правонарушений в органах внутренних дел, проведённый анализ и меры по их предупреждению. Изучение правонарушений по их видам. Анализ поведения молодых сотрудников, склонных к совершению правонарушений. Освещение комплексных и системных мер по предупреждению правонарушений.

Ключевые слова: Органы внутренних дел, правонарушения, их виды, основные причины, молодые сотрудники, правовые знания, факторы, опыт, психологическое давление, контроль, анализ.

Annotation: The article examines the main causes of offenses within internal affairs bodies, provides an analysis of these causes, and outlines measures for their prevention. It studies offenses according to their types and analyzes the behavior of young employees who may be prone to committing such violations. Furthermore, the article highlights comprehensive and systematic measures aimed at preventing offenses.

Keywords: Internal affairs bodies, offenses, their types, main causes, young employees, legal knowledge, factors, experience, psychological pressure, control, analysis.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

Bu borada ichki ishlar organlari vazifalari – davlatda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquq-tartibotni saqlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsada, ushbu organ xodimlari tomonidan qonun, xizmat intizomi yoki odob-axloq qoidalarini buzish holatlari kuzatilmoqda. Bunday holatlar jamiyatda ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatadi va qat'iy choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarida sodir etilgan huquqbuzarliklarning qilingan tahlili quyidagi asosiy turlarini tashkil etadi:

xizmat vakolatlarini suiste'mol qilish – qonuniy asoslarsiz shaxslarni, ushlash yoki jazolash, hujjatlarni soxtalashtirish, vakolat doirasidan chiqib harakat qilish;

korruptsiyaviy huquqbuzarliklar – pora olish va berish, xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat uchun foydalanish, moddiy manfaat evaziga qaror qabul qilish, noqonuniy xizmatlar ko'rsatish;

intizomiy huquqbuzarliklar – xizmat intizomini buzish, ishga kechikish yoki kelmaslik, rahbar buyruqlariga bo'ysunmaslik;

fuqarolar huquqlarini buzish qiynoq yoki noqonuniy bosim o'tkazish, shaxsiy daxlsizlikni buzish, adolatsiz munosabat (kamsitish, qo'pol muomala);

moliyaviy va iqtisodiy huquqbuzarliklar – davlat mablag'larini talon-toroj qilish, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, budjet mablag'larini noto'g'ri sarflash;

axborot bilan bog'liq huquqbuzarliklar – maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish, axborotdan noqonuniy foydalanish, hujjatlar bilan noto'g'ri ishlash;

jinoiy huquqbuzarliklar – qonunchilikda belgilangan jinoyatlar (talonchilik, firibgarlik va h.k.), quroldan noqonuniy foydalanish, zo'ravonlik bilan bog'liq harakatlar.

Yuqorida aytib o'tilgan huquqbuzarliklarning turlari bo'yicha o'rganilganda quyidagi omillar ta'sirida yuzaga kelishi ma'lum bo'ldi:

– huquqiy ong va madaniyatning yetarli emasligi, qonun talablarini to'liq anglamaslik yoki ularga befarq munosabat.

– axloqiy kamchiliklar, halollik, vijdonlilik, mas'uliyat kabi fazilatlarining zaifligi.

– manfaatparastlik, shaxsiy foyda ortidan noqonuniy harakatlarga borish.

– psixologik omillar, stress, charchoq, agressiya, emotsiyalarni nazorat qila olmaslik.

– nazorat tizimining zaifligi, ichki audit va tekshiruv mexanizmlarining samarasizligi.

– kadrlarni tanlash va tayyorlash, nomzodlarning professional va axloqiy sifatlari yetarli baholanmasligi.

– intizomning pastligi, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslik.

– rahbariyat tomonidan yetarli nazorat o'rnatilmasligi, ayrim hollarda befarqlik yoki talabchanlikning pastligi.

– moddiy manfaatdorlik, pora olish, noqonuniy daromad manbalariga intilish.

– maosh, uy-joy, ijtimoiy kafolatlar bilan bog'liq muammolar.

– tanish-bilishchilik, qonunni chetlab o'tish orqali boshqalarga yordam berish.

– jamoadagi nosog'lom takliflar, salbiy "an'analar" va noqonuniy xatti-harakatlarning oddiy holga aylanishi.

– fuqarolarning noqonuniy takliflari, pora berish yoki kelishuv takliflari

- qonunchilikning aniq tartibga solinmagan holatlar.
- javobgarlikning muqarrar emasligi, jazodan qochib qolish ehtimoli.
- qarorlar ustidan jamoatchilik nazoratining cheklanganligi.

Demak, IIO xodimlari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar, odatda, shaxsiy manfaatlar va tizimdagi kamchiliklar uyg'unlashganda paydo bo'ladi.

Shuning uchun ichki ishlar organlarida huquqiy va axloqiy tarbiya'ni kuchaytirish, ichki nazorat va intizomni oshirish, munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi qat'iy va tizimli choralar ko'rish zarur.

Ichki ishlar organlariga yangi qabul qilingan xodimlar – bu tizimdagi xizmat vazifalarini rasmiy ravishda bajarish uchun birinchi marta qabul qilingan yoki lavozimga tayinlangan yosh xodimlardir

Ichki ishlar organlarida yosh xodimlarni pedagogik tahlil qilish ta'lim-tarbiya'ning dolzarb muammolaridan biridir. yosh xodimlarni o'rganish va ularga yordam ko'rsatish uchun pedagogik yondashuvning asosiy maqsadi ularning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirish, shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va huquqiy madaniyatini oshirishdir.

Ichki ishlar organlarida huquqbuzarlikni sodir etishi mumkin bo'lgan yosh xodimlarning xati-harakatlarining tahlili quyidagi asosiy sabablar aniqlandi:

tajriba yetishmasligi – yosh xodimlar xizmat jarayonida turli murakkab vaziyatlarni hal qilishda qiynalishi;

huquqiy bilimlarning sustligi – qonun va ichki me'yorlarni yetarli darajada bilmasligi;

psixologik bosim – xizmatdagi stress, yuqori talab va bosim noto'g'ri qarorlar qabul qilishga sabab bo'lishi;

nazoratning yetarli emasligi – rahbariyat tomonidan muntazam monitoring va tarbiya ishlarining kamligi;

shaxsiy omillar – intizom pastligi, axloqiy qadriyatlarning yetarli shakllanmaganligi.

Tajriba yetishmasligi – bir nechta omillar bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa yosh xodimlar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Masalan, nazariy bilim yetarli bo'lsa ham, real xizmat vaziyatlarida ishtirok etish imkoniyati kam bo'lishi, tez va keskin qaror qabul qilishda o'zini yo'qotib qo'yishi, murabbiylik tizimining sustligi, kadrlar almashuvining yuqoriligi, ya'ni xodimlarning xizmat faoliyati tez-tez o'zgarishi natijasida tajriba uzluksizligi, Ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar har doim ham real xizmat sharoitlariga to'liq mos kelmasligi mumkin, stress, bosim va xavfli vaziyatlarga ruhiy jihatdan tayyor emasligi, o'z ustida ishlashga e'tiborning pastligi. Bu faqat vaqt bilan emas, balki to'g'ri tashkil etilgan ta'lim, amaliyot va rahbarlik orqali bartaraf etiladigan muammo. Shu sababli tizimli yondashuv muhim hisoblanadi.

Huquqiy bilimlarning sustligi – Ichki ishlar organlari xodimlarida huquqiy bilimlarning sustligi bir qator tizimli va shaxsiy omillar bilan bog'liq bo'ldi. Masalan ta'lim sifati yetarli darajada amaliy yo'naltirilmaganligi, qonunchilikning

tez-tez o'zgarishi va o'zgartirishlarni muntazam kuzatib borilmasligi, joylarda xodimlarning malakasini oshirish kurslari yetarli darajada tashkil etilmaganligi, mustaqil ravishda qonunlarni o'rganishga yetarli e'tibor berilmasligi, kundalik xizmat vazifalarining ko'pligi sababli yangi bilimlarni o'rganishga vaqt yetishmasligi, Huquqiy bilim darajasi ustidan muntazam tekshiruvlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, bilim oshirishga rag'batlantiruvchi mexanizmlar yetarli emasligi. Huquqiy bilimlarning sustligi nafaqat xodimning shaxsiy kamchiligi, balki tizimdagi muammolar bilan ham bog'liq. Uni bartaraf etish uchun ta'lim, nazorat va motivatsiya tizimini kuchaytirish zarur.

Psixologik bosim – Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqbuzarlikka moyil bo'lib qolishida psixologik bosim muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu bosim turli sabablar orqali yuzaga keladi: - yuqori xizmat talablari; - mas'uliyatning og'irligi; - ish vaqti tartibining og'irligi, - rahbariyat bosimi, - konfliktli vaziyatlar bilan tez-tez to'qnash kelish; - qonunchilikning tez-tez o'zgarishi; - ijtimoiy va oilaviy muammolar. Bunday psixologik bosim natijasida ayrim xodimlar noto'g'ri qaror qabul qilishi yoki huquqbuzarlikka yo'l qo'yishi mumkin. Psixologik bosimni kamaytirish uchun xodimlarga ruhiy yordam, sog'lom ish muhitini yaratish va adolatli boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish muhimdir

Nazoratning yetarli emasligi – ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida nazoratning yetarli emasligi bir qator tashkiliy va inson omillari bilan bog'liq bo'ldi. Bu holat ba'zan intizom buzilishi yoki huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin. Masalan: rahbarlar yuklamasining ortiqligi sababli qo'l ostidagi xodimlarning faoliyatini to'liq nazorat qila olmasligi; Nazorat mexanizmlarining sustligi; Kadrlar yetishmovchiligi; Elektron nazorat, video kuzatuv yoki raqamli tizimlarning yetarli joriy etilmagani nazorat samaradorligini pasaytirishi; Mas'uliyatning aniq taqsimlanmaganligi; Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi; Nazorat qiluvchi shaxslar faoliyati yetarli rag'batlantirilmasa, ular ishga loqayd yondashishi mumkin.

Nazoratning yetarli emasligi – bu tizimli muammo bo'lib, uni hal qilish uchun boshqaruvni takomillashtirish, texnologiyalarni joriy etish va mas'uliyatni kuchaytirish zarur.

Shaxsiy omillar – Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqbuzarlikka yo'l qo'yishida **shaxsiy omillar** muhim rol o'ynaydi. Bu omillar xodimning ichki dunyosi, tarbiyasi va individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'ldi. Masalan: Halollik, adolat va mas'uliyat kabi fazilatlar mustahkam bo'lmasa, xodim noto'g'ri yo'l tutadi; Xizmat qoidalariga beparvo qarash huquqbuzarlikka olib kelishi; Noqonuniy daromad orttirishga intilish korrupsion holatlarni keltirib chiqarishi; Stress va hissiyotlarni boshqara olmaslik; O'z vazifasiga jiddiy yondashmaslik qonun buzilishiga olib kelishi; Atrofdagi ayrim xodimlarning noto'g'ri xatti-harakatlari boshqalarga ham ta'sir qilishi; Shaxsiy rivojlanishga e'tibor bermaslik bilim va madaniyat darajasining pasayishiga olib kelishi; ichki ziddiyatlar,

tushkunlik yoki ruhiy bosim xodim xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi. Bunda shaxsiy omillar ko'pincha ichki nazorat va tarbiya bilan bog'liq bo'lib, ularni bartaraf etish uchun xodimlar bilan individual ishlash, ma'naviy-axloqiy tarbiya va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida huquqbuzarlikka yosh xodimlarni pedagogik tahlil qilishning asosiy maqsadi – huquqbuzarliklarning oldini olish uchun kompleks va tizimli choralar ko'rilishi zarur.

Ichki ishlar organlarida huquqbuzarliklarning oldini olish – tizim samaradorligi va jamiyat ishonchini ta'minlashda muhim yo'nalish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi kompleks va tizimli choralar ko'rilishi zarur:

- huquqiy savodxonlikni oshirish – bunda xodimlarga qonunchilikni chuqur o'rgatish, yangi qonun va o'zgarishlar bo'yicha muntazam treninglar o'tkaziladi.

- malaka oshirish va amaliy tayyorgarlik – bunda xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda, real vaziyatlarga yaqin mashg'ulotlar tashkil etiladi.

- kuchli ichki nazorat tizimini joriy etish – bunda intizom va qonuniylik ustidan muntazam monitoring, xizmat tekshiruvlari samarali olib boriladi.

- murabbiylik (mentorlik) tizimini rivojlantirish – bunda yosh xodimlarni tajribali kadrlar bilan birlashtirish orqali to'g'ri yo'naltiriladi.

- psixologik qo'llab-quvvatlash – bunda stressni boshqarish, nizoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish bo'yicha treninglar o'tkaziladi.

- korrupsiyaga qarshi qat'iy choralar – bunda shaffoflikni ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va javobgarligi kuchaytiriladi.

- rag'batlantirish va motivatsiya tizimini kuchaytirish – bunda halol va samarali ishlayotgan xodimlar moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi.

- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish – bunda video kuzatuv, elektron nazorat va raqamli tizimlar orqali inson omili kamaytiriladi.

- ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish – bunda vatanparvarlik, halollik va xizmat burchiga sadoqat ruhi shakllantiriladi.

Yangi qabul qilingan xodimlar ichki ishlar organlarining kelajagi hisoblanadi. Ular uchun qonunchilik, ichki tartib va etika bo'yicha qat'iy tayyorgarlik, mentorlik va nazorat tizimini ta'minlash huquqbuzarliklar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Doimiy o'quv va malaka oshirish – qonunchilik va kasbiy etikani chuqur o'rgatish.

Murabbiylik tizimi – tajribali xodimlarga yoshlarni birlashtirish.

Psixologik qo'llab-quvvatlash – stressni boshqarish bo'yicha treninglar o'tkazish.

Ichki nazoratni kuchaytirish – intizom va qonuniylik ustidan qat'iy monitoring.

Ma'naviy-tarbiyaviy ishlar – vatanparvarlik va halollik qadriyatlarini mustahkamlash.

Pedagogik tahlilning asosiy vazifalari esa, yosh xodimlarning shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlarini, qobiliyatlarini va muammolarini aniqlash, oila, maktab va mahalla muhitidagi ta'sirlarni tahlil qilish, yoshlarning huquqbuzarlikka moyilligining psixologik va ijtimoiy sabablarini aniqlash va yoshlarni to'g'ri yo'lga kirishi uchun individual dasturlarni ishlab chiqish.

Ichki ishlar organlarida huquqbuzarlikka moyil bo'lgan yosh xodimlar tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi deya ta'rif berilgan.

Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlaridan iboratdir. Ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko'rsatadi.

Huquqbuzarlikka moyillikning sabablari murakkab bo'lib, ular oilaviy, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq:

1. **Oilaviy omillar.** Noto'g'ri tarbiya ya'ni ota-onalarning beparvoligi yoki haddan tashqari qattiqqo'lligi, oilaviy muhit ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar yoki oiladagi nizolar, oilaviy huquqiy madaniyatning pastligi ya'ni oila a'zolarining huquqbuzarlik holatlariga aloqadorligi va oila uchun huquqbuzarlik sodir etish odatiy holat sifatida qaralishi.

2. **Psixologik omillar.** Yoshlarning o'ziga past baho berishi ya'ni yoshlarning o'zlariga nisbatan ishonchsizliklari, emotsional beqarorlik ya'ni yoshlar orasida stress, agressiya va asabiylikning yuqoriligi, atrof muhitning e'tiboriga bo'lgan ehtiyoj ya'ni yomon muhitda o'zini namoyon qilish istagining kuchayib borishi.

3. **Ijtimoiy omillar.** Betartib va beqaror ko'cha muhitiga tushib qolish ya'ni salbiy odatlarga ega bo'lgan tengdoshlar guruhi ta'siri, maktabdagi muammolar ya'ni o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar va o'qituvchilarning befarqligi, bo'sh vaqtini noto'g'ri tashkil qilish ya'ni yoshlarning foydali va o'zi uchun kerakli bo'lgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanmasligi.

Huquqbuzarlikka moyil yoshlarni aniqlash va ularga pedagogik yondashuvni ishlab chiqishda ba'zi yo'nalishlarni e'tiborga olish lozim deb bilaman. Bular:

Diagnostika - psixologik tekshiruvlar olib borish, yoshlarning temperamenti, emotsional holatini va qiziqishlarini tahlil qilish, yoshlarning ijtimoiy hayotini monitoring qilish, o'quvchi yoshlarning o'quv jarayonidagi

va ijtimoiy hayotdagi faoliyatini kuzatish, yoshlarning atrofidagi o‘qituvchilari va tengdoshlarining u haqidagi fikrlarini bilish.

Xulq-atvor tahlili - muammoli holatlarni aniqlash, huquqbuzarliklar yoki mojarolarga olib kelgan vaziyatlarni tahlil qilish, motivatsion omillarni o‘rganish, yoshlarning huquqbuzarliklarni sodir etishga majbur qilgan va ushbu holatga olib kelgan ichki sabablarni aniqlash.

Har bir yoshga alohida yondashib, uning qiziqishlari va muammolarini inobatga olish, yoshlarni sport, san’at va boshqa ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, o‘z qilmishlari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rgatish, psixologik muammolarni hal qilish usullariga o‘rgatish, sog‘lom guruh muhitini yaratish orqali salbiy ta’sirni kamaytirish, oila bilan birgalikda muammolarni hal qilishga qaratilgan mashg‘ulotlar tashkil etish, huquqbuzarlikning sabablarini bartaraf etish bo‘yicha ota-onalarga ko‘rsatmalar berish, yoshlarni o‘z huquq va majburiyatlari haqida xabardor qilish va bunday xatti-harakatlarning jiddiy natijalari haqida suhbatlar o‘tkazish huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan ishlashda pedagoglar qo‘llashi mumkin bo‘lgan choralar hisoblanadi.

Huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan ishlash pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarning uyg‘unligi asosida olib borilishi kerak. Pedagogik tahlil jarayonida yoshlar va o‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini aniqlash orqali ularga mos choralar ishlab chiqiladi. Muhimi, bunday yondashuvni uzluksiz amalga oshirish va barcha ishtirokchilar (oilal, maktab va jamiyat) o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Bu borada, davlatimizda ham ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimizda yoshlar masalasiga alohida e‘tibor qaratilayotgani, ularning kelajagi davlatning kelajagi ekani ta’kidlanayotganini, huquqbuzarliklarni oldini olish va yoshlarni jinoyatchilikdan asrash uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani buning yaqqol misolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2016-yil 16-sentabr kunidagi O‘RQ-407-son qarori bilan qabul qilingan “Ichki ishlar to‘g‘risidagi qonun”
2. 2023-yil 20 yanvardagi PQ-10-son qarori “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi”
3. IIVning 2025-yil 30-maydagi 209-son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining saf nizomi.
4. 2015-yil 14-fevral PF-23. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari.
5. Sergender Sezer, Orhan Kahya, Kasim Yildirim “E‘giting ve su‘c arasindaki iliskinin sosyolojik analizi”, - Turkiya, 2022.
6. <https://lex.uz>, O‘RQ-263-son, 2010. - nashr sana.